

Nazar Eshonqul asarlarida lirik tasvir, majoz va psixologizm dialektikasi

Soxiba Saidmuradova-Termiz davlat pedagogika

instituti o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD)

Annotatsiya

Lirizm va uning bag'rida psixologik tasvir mohiyatining namoyon bo'lishi inson qalbi kechinmalari, ayollar olami, sevgi – muhabbat, qo'shiq, musiqa, peyzaj, maktub, dialog kabi adabiy komponentlar orqali amalga oshirilishi mumkin. Lirizm masalasi Nazar Eshonqulning "Momoqo'shiq" qissasida qo'shiq vositasida ancha mukammal namoyon bo'ladi. Maqolada qissaning yetakchi obrazlaridan biri Muazzam timsolida asarning lirik – poetik mohiyati o'z ifodasini topganligi ilmiy-nazariy yoritiladi.

Kalit so'zlar; lirik tasvir, poetik mohiyat, psixologik tasvir, etakchi obraz, lirizm masalasi, psixologik tahlil, ezgu g'oya.

Badiiy asarning o'ziga xos, uni o'qimishli va ta'sirchan qiladigan vositalardan biri – lirizm, lirik tasvirda yozuvchi mahoratining nechog'li namoyon bo'lishi bilan bog'liq masalalar sanaladi. Lirizmni odatda, qo'proq she'riyat namunalaridan qidirish, she'riyatning "lirika", "lirik she'riyat" qabilida atash odatga kirgan. Ammo, nasrda ham, eposda ham, sahna asarida ham lirik ko'lam, lirizm jozibasi mavjud bo'ladi. Buni ilmiy – tadqiqot ishlari jarayonida aniqlash mumkin bo'ladi.

Lirizm, lirik qalbli yetuk badiiy obrazlar har bir yetuk asarning eng muhim komponenti, yozuvchining ezgu g'oyalarini to'laroq namoyon qilishga imkon beruvchi vositalardan sanaladi. Shu ma'noda, yuksak ijobiy qahramonlarga xos ezgu jihatlardan biri ularning go'zal tuyg'ular, go'zal odatlar va harakatlar bilan bog'liqligi, vafo – sadoqat egasi sifatidagi jihatlari bilan o'lchanadi. Ayni vaqtda go'zallik, mo'tadil ijobiy hislatlar lirizm hodisalarining muhim komponentlari sanaladi. Masalan, Farhod, Shirin, Layli, Majnun, Otabek, Kumush, Anvar, Ra'no, Yo'lchi, Gulnor kabi ma'nan yuksak qalbli obrazlar tasvirida ijodkorlar lirik talqin uslubidan foydalanadilar.

Adabiyotshunos olim F.Nasriddinov yozganidek, Abdulla Qodiriy insoniy go'zallik, go'zal tuyg'ular, muomala, munosabatlarni qabohat – jaholat, xudbinlik va razolatga qarshi qo'yish yo'lidan boradi"²⁹

Bu fikrlar Qodiriy ijodining lirik tuyg'ularga naqadar yaqinligi masalasini tushunish imkonini beradi. O'zbek adabiyoti namunalarida psixologizm, psixologik tahlil, psixologik tasvir masalalari nisbatan keyingi- yangi Istiqlol davri adabiyotshunosligida maxsus o'rinda boshlandi. Shunday izlanuvchan adabiyotshunos olimlardan biri Shahlo Botirovaning fikricha: Abdulla Qodiriy, Cho'lpon va Oybek romanlarida psixologik tasvirlarning nisbatan an'anaviy – diologik zidlov, solishtirma, monologik tahlil shakllari, Abdulla

²⁹ Nasриддинов Ф. Маҳорат жилolari (Абдулла Қодирий ижодиёти), "Ўзбекистон", Тошкент – 1974, 42- бет.



Qahhorda adabiy qahramonlarning botin kolliziyasi, Odil Yoqubov va Pirimqul Qodirovlar nasrida real tarixiy vaziyatlar va inson botinining mushtarak badiiy tahlili, Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam va Ahmad A'zamlarda shaxs psixologiyasining difonik va polifonik tasvirlari, Nazar Eshonqul, Isajon Sultonlarda esa, metaforizatsiyalashtirilgan psixologik tasvir tamoyillari ko'zga tashlanadi."³⁰

Olimaning nozik kuzatish va umumlashmalari o'zining hayotiy va adabiy mantiqiga ega. Shu jihatdan qaraganda, Nazar Eshonqul asarlarida psixologizmning mifologik motivlar, nutqiy xarakteristika, portret, tush, peyzaj, dialog, lirizm, majoz, ramz kabi komponentlarda namoyon bo'lishi, uning bu masalalardagi novatorona izlanishlarini bildiradi.

Lirizm va uning bag'rida psixologik tasvir mohiyatining namoyon bo'lishi inson qalbi kechinmalari, ayollar olami, sevgi – muhabbat, qo'shiq, musiqa, peyzaj, maktub, dialog kabi adabiy komponentlari orqali amalga oshirilishi mumkin.

Lirizm masalasi Nazar Eshonqulning "Momoqo'shiq" qissasida qo'shiq vositasida ancha mukammal namoyon bo'ladi. Qissaning yetakchi obrazlaridan biri Muazzam timsolida asarning lirik – poetik mohiyati o'z ifodasini topgan. Muazzamning gul bag'rida, paxta dalalari, ekinzorlar muhitida dilbar ko'shiqlarni kuylashi asarning barcha komponentlariga estetik joziba, go'zallik ruhini bag'ishlab turadi. Shoir Shamsi Saloh uning bu yovvoyi maqomlaridan ta'sirlanib, uning katta shaharga, san'at va iste'dod uchun keng imkoniyat mavjud madaniy muhitga borishi haqida eri – brigadir Otaqul bilan jiddiy gaplashadi.

Bir qaraganda, havoyi tuyg'ular egasi Shamsi Saloh qishloq go'zali Muazzamning bu turmushdan juda bezganligini aytadi, bu dim va jazirama, uni hech qachon tushunmaydigan qo'pol – qo'rs odamlar, qaysidir yovvoyi zamonlardan saqlanib qolgan yovvoyi udumlar, keyin mana bu dalalardagi tashvishlar uning joniga tekkanligini ta'kidlaydi.

Qishloqning sodda dehqon yigiti Otaqul avvalo, bu balandparvoz, ammo aslida to'g'ri so'zlardan lol-garang, boshi qotib qoladi. Muazzamning qo'shiqchilik iste'dodi bu yerda – qishloqda hayf bo'lib qolishi to'g'risida kuyungan bo'ladi. –Menga bu haqda hech qachon gapirmagan.. – to'ng'illadi Otaqul.

Xulosa chiqadiki, jamiyatdagi va tabiatdagi barcha jarayonlar, jumladan, go'zallik va nafosat, ezgulik va oliyjanoblik ne'matlarining hosil bo'lishi hamda tasvir – tadqiq etilishi inson olami, go'zallikka, lirik olam sharofatidan voqe bo'ladi.

O'z nomi bilan ilohiy ne'mat bo'lmish qo'shiq sehri mazmunini eslatib turadigan "Momoqo'shiq" qissasida Muazzam kelinchakning jonbaxsh qo'shiqlari asar lirizmining mohiyatini belgilaydi. Shu bois, adib bu qo'shiqlar talqiniga ancha batafsil e'tiborini qaratgan:

"Bu juda go'zal manzara edi, buni faqat usta rassomlarning suratlaridagina ko'rish mumkin, biroq eng zo'r musavvir ham uning qo'shig'iga bo'yoq topolmagan bo'lardi.

³⁰ Ботирова Ш. Хозирги ўзбек романларида бадий психологизм. Фил. фан.бўйича фалсафа доктори дисс.си. Қарши- 2019, 15-бет

Qizning ovozi bani dunyo o'zaro uyg'unlashib jonlanar, go'yo hayol ham, go'zallik ham, orzu ham qizning qiyofasiga kirib qo'shiq aytardi."³¹

Qo'shiqning qalb malhami bo'lishi – lirik tasvir malohati sifatida xarakterli talqin. Muallif bunday nazokatli lirik tasvir orqali, avvalo, qo'shiqchi kelinchak Muazzam psixologik olamidagi poklik va go'zallik sururini ifodalay olgan. O'z navbatida bu sehrli ilohiy qo'shiq ohanglari ming – millionlarni go'zallik va nafosat, poklik va bezavollik ruhida tarbiyalash kuchiga ega. Muazzam qo'shiqlarining lirik pafosi yozuvchi tomonidan juda aniq badiiy-estetik prinsiplar asosida sharhlab – izohlab berilgan:

-bu qo'shiqqa, uning ifodasiga usta rassomlar ham bo'yoq topolmaydi;

-qo'shiq ohanglari bahordek go'zallik va yasharish faslini, tarovat taratib turgan gullarni, qizg'aldoqni ko'z oldiga keltiradi;

-qo'shiq sehrli mayin tumanning bog'ni qoplagan holatini, varrak uchirayotgan beg'ubor bolalar dunyosini hayolda joylashtiradi;

- bu olam – jahonni o'z sehri bilan qoplagan qo'shiq ohangi va issiq tafti yoqimli shabada misoli ko'ngilga oqib kiradi;

- u hayolni tortqilab – tortqilab, olis – olislarga, hayolot, orzu, samimiyat va mo'jizalar gullab yotgan bolalik adirlari tomon yetaklaydi.

-bu qo'shiq xasis dunyoning qo'ynidan bu go'zal ohanglarni parcha – parcha qilib qo'porib olayotganday va jarohatlar bijg'ib yotgan qalblarga malham qilib bosayotganday edi...

Mazkur hayotbaxsh tuyg'ular in'omi yozuvchi qalamining sehri bilan paydo qilinayotgan lirik – psixologik mujdalardir.

Asarda yozuvchining nutqi, murojaat – psixologik talqini ham o'z o'zni va o'z ahamiyatiga ega:

“... O, sen momoqo'shiq. Bu sahroda sen uyg'otadigan narsa qolmagan. O, bildim, sen bu yerlarga meni izlab kelgansan. Mana, men, qancha siring bo'lsa ayt: Ko'nglimdagi ul g'olib tug'larni ko'tar.”³²

Muallif qo'shiqqa xos lirik – estetik olamiga, go'zalliklar va ezguliklar bag'ishlovchi qudratiga nisbatan iltijoli murojaati – taassuroti tizmasidan o'tib, o'quvchilar qalb prizmasiga ham kirib boradi. Ya'ni, asli pok va xushbo'y go'zal qiz qalbining, qo'shiqlari tasvirining ko'lami o'zga millionlar psixologiyasining ham poklanishi uchun rahnamolik vazifasini ado etadi. Bu romantik – lirik murojaatlar qatida ham qo'shiqdan mustabid tuzumdan qolgan yaralarga malham bo'lishi, xarobotga aylangan yurt dardini davolash, o'liklar mamlakatiga qayta bag'ishlangan iltijolari o'z mujassamligini topgan. Demak, bu zamon kishilari psixologiyasiga, ruhiy olamiga tozarish, erkinlik va ezgulik qadriga yetish da'vati kabi yuksak ijtimoiy ahamiyatga ham molikdir. Bunday gumanitar da'vat navbatdagi so'zlar qatiga ham joylashtirilgan:

“O, o'lmas qo'shiq kemasi! Suz, suzaver! Ul olis diyorlardan menga tomon suzib kel, mening yuragimga langar tashla! Men seni asrlar, yillar osha kutdim. Ul momo yurtlardan

³¹ Эшонкул Назар. Момоқўшиқ. Т.:Ғафур Ғулом номидаги НМИУ., 2019. 2-сон, 274- бет.

³² Қаранг:Эшонкул Назар. Момоқўшиқ. Т.:Ғафур Ғулом номидаги НМИУ., 2019. 2-сон, 276- бет.

meni izlab kelishingizni bilardim. O, umid kemasi! Suz, suzaver. Bu sahro uzra ulug'vor yelkanlaringni yozib o't."³³ Ta'kidlash joizki, mazkur qo'shiq sehri bilan bog'liq lirik talqinlar majoziy – ramziy mohiyati bilan ham e'tiborni tortadi. Chunonchi, qo'shiq yomonliklar va yovuzliklarni mavh etish, yaxshilik va ezgulikni sarbaland qilish va ulug'lashning ramzi – majoziy vositasi. Shu tariqa bu o'rinda psixologik tahlilning ko'lamdorligi va mukammalligi, lirik tasvir va majoziy talqinning bir – birini to'ldirgan shaklining insoniy omil tasvirida qo'l kelganligi namoyon bo'ladi.

Qissadagi Muazzam obrazini o'zbek adabiyotida yaratilgan Kumush, Ra'no, Gulnor, Saida, Gulchehra, Fotima, Zuxra kabi ayol obrazlari qatorida va ulardan farqli ravishdagi, sobiq mustabid tuzum davr ruhini ifodalovchi, tamoman yangi badiiy timsol ekanligini ta'kidlash kerak. Adabiyotshunos olimi Feruza Burxanova yozgani kabi:

Muazzam obrazi, hatti- harakatlari, insoniy tiynati tadrijidan ma'naviy go'zallik, nafosatli g'oyalar, nozik tuyg'ular ilohasi kabi yorug' taassurot qoldiradi. Qolaversa, yozuvchining lirik tasvir mahoratining jozibasi shu obraz timsolida namoyon bo'lgan. Odatda lirik tiynatli timsolning chinakam go'zalligi, yovuz kuchlar, dushmanlik harakatlari tomonidan mavh etilgan. Bunday hayotiy haqiqatlar iste'dodli yozuvchilar tomonidan hayot haqiqatining badiiy haqiqatga aylantirilishi asnosi talqin etiladi. Go'zallik va oqilalik timsoli Kumushning bevaqt qazosi, bu ikki sevishtan Otabek – Kumushning bezavol baxti Hushro'yibibi va uning yaqinlari, jumladan, Kumushning kundoshi Zaynab tomonidan uyushtirilgan hasad ig'vosi bilan bog'liq.

Muazzam mansub muhitda, aytaylik To'marislarga, Shirin va Layliga, Qurbonjon yoki Nodirai Davronga, Kumush yoki Ra'noga qarshi bo'lgan dushman kuchlar yo'q. Ammo, uning atrofida mavjud oila tashvishlari, ro'zg'or tebratish, ekin – tekinlar, qishloq yumushlari tashvishidan qutulib, shaharga – iste'dodi yashnab ketadigan san'at dargohlariga yo'l olish imkoni yo'q.

Eri Otaqul sovxozning cho'l bag'ridagi chekka brigadasi boshlig'i qilib yuborilgan, Muazzam ham shu paxta yakkaxokimligi talqinidagi tashvishlar, ipsiz bog'langan zaharli talablar mutesiga aylangan. Qolaversa, uni san'at maskanlariga boshlayotgan dovdirsifat Shamsi Salohning havoyi, noreal talablari Muazzam unib – o'sgan, bag'rikeng qishloq, oila va farzand mas'uliyati bilan tamoman kontrast hodisa. Muazzam Olloh ato etgan iste'dodining mahsuli bo'lmish jarangdor yoqimli qo'shiqlari bilan yashashni, o'z qishlog'i va dalalaridan ajralmasligini eng baxtli onlari deb biladi.

Yozuvchi go'zallikni nafosat olamini barcha og'ir, mustabid muhitdan ustun holda tasvirlar ekan, bu go'zallik va san'at nafosatining majoziy jihatlarini ham nazarda tutgan. Ya'ni, Muazzamning ko'rkam, bezavol qiyofasi, ulkan iste'dodi, chin go'zallik olamining majoziy kabi namoyon bo'ladi. Yozuvchining Muazzamdek sodda, farishtasifat kelinchak obrazini yaratishdan ham asosiy muddaolaridan biri shu bilan bog'liq. Asarda Muazzam uchun, umuman har bir odam zoti uchun ham eng avvalo tug'ilib – o'sgan, mehr qo'yan joyi muqaddas va qadrli ekanligi g'oyasi yetakchilik qiladi. Muazzamning sun'iy xarakterli, ijodkor bo'lsa – da, muomala – madaniyati yerdan uzilganday, havoyi Shamsi Salohga aytgan "Mening ildizim shu yerda, shu odamlar orasida. Men boshqa joyda

³³Эшонкул Назар. Момоқўшиқ. Т.:Ғафур Ғулом номидаги НМИУ., 2019. 2-сон, 276- бет.

ko'karolmayman"³⁴- degan so'zlarida uning ma'naviy go'zalligi o'z aniqligi bilan namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1,Nasriddinov F. Mahorat jilolari (Abdulla Qodiriy ijodiyoti), "O'zbekiston", Toshkent – 1974, 42- bet.
- 2,Botirova Sh. Xozirgi o'zbek romanlarida badiiy psixologizm. Fil. fan.bo'yicha falsafa doktori diss.si. Qarshi- 2019, 15-bet
- 3,Eshonqul Nazar. Momoqo'shiq. T.:G'afur G'ulom nomidagi NMIU,, 2019. 2-son, 274- bet.
- 4,Qarang:Eshonqul Nazar. Momoqo'shiq. T.:G'afur G'ulom nomidagi NMIU,, 2019. 2-son, 276- bet.
- 5,Eshonqul Nazar. Momoqo'shiq. T.:G'afur G'ulom nomidagi NMIU,, 2019. 2-son, 276- bet.



³⁴ Эшонкул Назар. Момоқўшиқ. Т.:Ғафур Ғулум номидаги НМИУ,, 2019. 2-сон, 276- бет